

TARBIYAVIY TADBIRLAR ORQALI O'QUVCHILARDA IJTIMOIIY QADRIYATLARNI SHAKLLANTIRISH

Murodova Nasiba Sherali qizi

Samarqand davlat pedagogika instituti magistranti

Annotasiya: *Ushbu maqolada muallif yosh avlodni milliy qadriyatlar va ajdodlarimizning bebaho merosi milliy o'zlikni anglash ruhida tarbiyalashda maktabda o'tiladigan fanlardan tashqari kutubxonalar, mahalla, madaniyat, ma'naviyat va ma'rifat markazlari bilan hamkorlikda yoshlarni kitobxonlik, she'rxonlik kechalari, ijodiy uchrashuvlar, katta avlod vakillari ishtirokida milliy qadriyatlar aks ettirilgan turli tadbirlarga jalb etishdagi tarbiyaviy ta'siri haqida o'z fikr-mulohazalarini asoslangan holda bildiradi.*

Kalit so'zlar: *Sharqona dunyoqarash, milliy qadriyatlar, tadbirlar- tarbiya, odob -axloq.*

Vatanimizning qadimiy va boy tarixini chuqur o'rganish, ushbu yo'nalishdagi ilmiy tadqiqot ishlarini faollashtirish, yosh avlodni milliy qadriyatlar va ajdodlarimizning bebaho merosi asosida tarbiyalash, milliy o'zlikni anglash hissini yanada mustahkamlash maqsadida qator chora-tadbirlar yo'lga qo'yilgan[1].

Oilada kitobxonlik madaniyatini yanada yuksaltirish orqali yoshlarning kitob va kitob o'qishga bo'lgan qiziqishlarini oshirish, ulug' allomalarimizning oila mustahkamligini saqlashda nimalarga e'tibor qaratish lozimligi to'g'risidagi hikmatlari misolida uning mazmun-mohiyatini singdirib borish ularning milliy qadriyatlarimizga bo'lgan hurmatini oshiradi[2]. O'quvchilar kitobning ahamiyati, jamiyat taraqqiyotidagi o'rni, umuman, kitobsiz yashash mumkin emasligini shoir va yozuvchilar, jurnalistlarning o'z og'zidan eshitsalar uning ta'siri kuchli bo'ladi.

Jumladan, maktabda o'tiladigan fanlardan tashqari kutubxonalar, mahalla, madaniyat, ma'naviyat va ma'rifat markazlari bilan hamkorlikda yoshlarni kitobxonlik, she'rxonlik kechalari, ijodiy uchrashuvlar, katta avlod vakillari ishtirokida milliy qadriyatlar aks ettirilgan turli tadbirlarga jalb etish bolalarda milliy qadriyatlarni shakllantiradi [3].

Bu borada o'qituvchi tashabbuskor bo'lishi lozim. Tuman maktablarining birida bo'lib o'tgan ana shunday iste'dodli va iqtidorli yoshlar bilan ijodiy uchrashuvda taniqli yozuvchi yoki jurnalist har bir sohaning o'ziga xos jihatlari, maqsad va vazifalari, kitob mutolaasi va kitoblarni chop etishda jurnalist yoki ijodkorning mehnati hamda til bilish - hayotda o'z o'rinlarini topishlarida, dunyoqarashini shakllantirishidagi ahamiyati haqida keng tushuntirishlar berdi. Dastlab, sukunatda o'tirgan o'quvchilarda jonlanish paydo bo'ldi. Ular

tezda taniqli ijodkor bilan muloqotga kirishib, tortinmasdan o'z fikr-mulohazalarini bayon eta boshladilar[4]. O'qiyotgan kitoblaridagi obrazlarning xarakterini tahlil qilar ekanlar, qadriyatlarimizga zid hatti-harakatlarini, salbiy va ijobiy tomonlarini o'z tushunchalari doirasida xulosalay boshladilar.

Demakki, yoshlarni ma'naviy va jismoniy barkamol qilib tarbiyalashda samaradorlik garovi bo'lgan bu kabi tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etish o'qituvchidan tashabbuskorlikni talab etadi.

—Maktablarda o'tkaziladigan ijodiy uchrashuvlar o'quvchilarda muhim bir omilni – kitobga, adabiyotga mehr-muhabbat bilan yondashuvni yuzaga keltiradi, — deydi maktablardan biridagi Ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari Feruza Qalandarova — Yozuvchi, jurnalist yoki shoir timsolida o'z xayolidagi ideal insonni, kelajak hayotida namuna bo'ladigan shaxsni topgandek bo'ladi. O'quvchi o'ziga namuna bo'lgan shaxsning xulq-atvori bilan o'zining hatti-harakatini solishtiradi va o'zining ijobiy yoki salbiy jihatlarini anglab yetadi. O'ylaymizki, bunday uchrashuvlar o'quvchilar qalbida bir umrga muhrlanib qoladi, uni faol kitobxon bo'lishga chorlaydi.

O'quvchilar bilan turli mavzular doirasida olib borilgan qiziqarli muloqotlar, tavsiyalar, maslahatlar ularning ongida kerakli xulosalarni uyg'otadi, ijtimoiy hayotda faol bo'lishga undaydi.

Pedagogik jarayonda xotirjamlikka yo'l qo'ymaslik, sog'lom muhit yaratish, barqaror shaxsni tarkib toptirish uchun doimo izlanishi zarur[5]. O'spirinlarda axloqiy tushunchalarni oqilona shakllantirishda ularga nojo'ya xulq-atvor, chet el filmlarining mazmuni ma'naviyatga va ruhiyatga salbiy ta'sir etishini tushuntirish zarur.

Yangi O'zbekistonda intellektual qobiliyatlarini namoyon eta oladigan va yuksak ma'naviyatli shaxsni tarbiyalashda buyuk Sharq allomalarining boy madaniy merosi, ilmiy ijodiy qarashlaridan foydalanish milliy qadriyatlarimizga xos fazilatlarini rivojlantirishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Jumladan, Sharq mutafakkirlarining axloqiy-ma'naviy qarashlarining mazmun-mohiyatini kutubxonalarda tashkil etiladigan “Kitobxon onalar”, mahallalardagi “Oqila ayollar harakati”, “Buvijonlar maktabi”, “Ustozlardan o'rganamiz” mavzuisidagi yozuvchi-shoir va olimlar bilan ijodiy uchrashuvlar kabi tadbirlarda ularning ongiga singdirish orqali ijobiy natijalarga erishish mumkin va bolalarni kitobxonlikka undash davr talabidir.

Bularning barchasi ta'lim samaradorligini oshirishga, yoshlarimizni milliy istiqlol g'oyasi ruhida tarbiyalashga qaratilgandir. Pedagogik g'oyalar tarixida Demokritning tarbiya to'g'risidagi fikrlari muhim ahamiyatga ega. “Agar hech bir kimsa o'qimasa na mahoratga, na donishmandlikka erisha oladi”, deydi faylasuf o'z asarlarida[6].

Yangi O'zbekistonning har bir sohadagi taraqqiyoti jahon hamjamiyati minbarlarida tan olinayotgan bugungi kunda, ta'lim sohasida ham olib borilayotgan islohotlar doirasida yoshlarimizni kitobxonlikka va ma'naviyatini yuksaltirishga e'tibor kuchaytirilmoqda. Umumta'lim maktablaridagi "Tarbiya" fanida Cho'lpon, Abdurauf Fitrat, Mahmudxuja Behbudiy kabi yirik adabiyot vakillarining asarlarida keltirilgan odob-axloq, ta'lim-tarbiya, yaxshilikka yetaklovchi rivoyat, pand-nasihat va o'g'itlarining mazmun-mohiyati haqida so'zlab berilishi o'quvchilarda sog'lom tafakkurni rivojlantirish, milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda muhim ustuvorlik kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
2. Musurmonova O. Ma'naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi. – Toshkent, 2015.
3. Hasanboyeva O., Yo'ldosheva S. Pedagogika nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: Tafakkur, 2020.
4. G'ofurov K. Yoshlar ma'naviy tarbiyasi: nazariya va amaliyot. – Toshkent: Ilm Ziya, 2019.
5. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi. – BMT, 1948.
6. Demokrit. Falsafa va tarbiya asarlari. – Yunoniston, 400 B.E.